

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

## MADANIYAT-BU JAMIYAT, INSON TARIXIY RIVOJLANISHINING MA'LUM DARAJASI, IJODIY KUCH VA QOBILIYATDIR

**Maxmudova Aziza Azamat qizi**

Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish yo'nalishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyat ma'naviy madaniyatini takomillashtirish jarayonini har tomonlama o'rganish, uning ijtimoiy –madaniy xodisalar tuzulmasidagi o'rnini aniqlash, davlatning jamiyat ma'naviy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan siyosiy islohatlar mavzu yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar keltirilib, tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar:** jamiyat, ma'naviyat, madaniyat, badiiy tafakkur, shartsharoit, shakli, tuzilish, hajm, shakl, kompozitsiya.

## КУЛЬТУРА – ЭТО ОПРЕДЕЛЕННЫЙ УРОВЕНЬ ОБЩЕСТВА, ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕКА, ТВОРЧЕСКОЙ СИЛЫ И СПОСОБНОСТЕЙ.

**Аннотация:** В данной статье представлены научно-теоретические взгляды на тему комплексного изучения процесса повышения духовной культуры общества, определения ее места в структуре социальных и культурных явлений, политических реформ, направленных на повышение духовной культуры общества. общества представлены и проанализированы.

**Ключевые слова:** общество, духовность, культура, художественное мышление, условия, форма, структура, объём, форма, композиция.

## CULTURE IS A CERTAIN LEVEL OF SOCIETY, HUMAN HISTORICAL DEVELOPMENT, CREATIVE POWER AND ABILITY

**Abstract:** In this article, scientific-theoretical views on the topic of comprehensive study of the process of improving the spiritual culture of the society, determining its place in the structure of social and cultural phenomena, political reforms aimed at improving the spiritual culture of the society are presented and analyzed.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

**Key words:** society, spirituality, culture, artistic thinking, conditions, form, structure, volume, form, composition.

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va b. shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Mas, Forobiy fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra, «oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi», bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta'kidlashicha, «madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-xunarda ozod, hamma babbaravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar b-n shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar». Alisher Navoiy yetuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezonini deb insonparvarlik g'oyalariga muvofiqlikni tushundi. Madaniyat tushunchasi ikki darajada talqin qilinadi. Oddiy-kundalik ong darajasi-u odamlarning kundalik amalyoti maxsuli sifatida amal qiladi. Unda shaxs o'ziga ta'sir qilayotgan barcha ma'lumotlarni qabul qiladi. Nazariy darajada – aqil imkoniyatlari namoyon bo'ladi, faqat o'zining ichki ma'naviy-ruxiy holatiga zarur bo'lganlarini saqlab qoladi va rivojlantiradi. Madaniyat – bu insoniyatning yuksak ahloqiy ijtimoiy munosabatlari, madaniy ishlab chiqarishga doimiy ehtiyoj mahsulidir. Shuning uchun nafaqat shaxsning ma'naviy fazilatlarini bilan bog'liq bo'lgan ichki madaniyatni, balki tashqi madaniyatni ham shaxsning ichki, ma'naviy olamini namoyon etish shakli sifatida ajralib ko'rsatiladi. Madaniyat ma'lum qadriyatlar tizimi sifatida insonda aniq ehtiyojlar va yo'nalishlarni shakllantiradi. O'zlarining darajasi va sifati bo'yicha odamlar ko'pincha boshqalarning madaniyati darajasiga qarab baxo berishadi. Yevropada «Madaniyat» deyilganda dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan (lot. cultura — yerni ishlash, parvarishlash; ruschadagi «kultura» so'zi ham shundan olingan). Madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlariga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag'batlantirishni ham o'z ichiga olgan. Madaniyatga bunday ikki yoqlama yondashuv har qanday jamiyatga xos (mas, Qad. Xitoyda jen, Hindistonda dxarma). Ellinlar «madaniyatsiz» varvarlardan o'zlarining asosiy farqini «paydey», ya'ni «tarbiyalanganlik»da deb bilganlar. Qad. Rimning so'nggi davrlarida «Madaniyat» tushunchasi ijtimoiy

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va oʻrta asrlarga kelib keng tarqalgan. Bu tushuncha keyinchalik kelib chiqqan sivilizatsiya tushunchasiga yaqin turadi. Yevropada Maʼrifatchilik davrida Madaniyat va sivilizatsiyaning «tanqidi» vujudga keldi (J. J. Russo). Bunda «madaniy» millatlarning buzilganligi va axloqiy tubanlashganligiga taraqqiyotning patriarxal bosqichida boʻlgan xalqlar axloqining soddaligi va sofligi qarshi qoʻyildi. Nemis faylasuflari bu ziddiyatli holatdan chiqishning yoʻlini «ruh» doirasidan, axloqiy (I. Kant), estetik (F. Shiller, romantiklar) yoki falsafiy (G. Gegel) ong doirasidan qidirdilar. Ular bu ong sohalarini haqiqiy Madaniyat va inson taraqqiyotining omillari deb bildilar. 19-a. oxiridan boshlab «lokal sivilizatsiya» (O. Shpengler) degan qarash yuzaga keldi. Bu gʻoya sivilizatsiyani muayyan jamiyat taraqqiyotining soʻnggi bosqichi sifatida olib qaradi. Fan-texnika taraqqiy topgan sharo-itda koʻpgina sotsiologlar va madaniyatshunoslar Madaniyatning yagona gʻoyasini izchil amalga oshirish mumkin emas, degan qoidani ilgari surdilar. Bu politsentrizm, Gʻarb bilan Sharqning azaldan qarama-qarshiligi va ijtimoiy taraqqiyotning boshqa umumiy qonuniyatlarini inkor etuvchi nazariyalarida oʻz ifodasini topdi. Madaniyatning ilmiy, tarixiy konsepsiyalariga qarama-qarshi oʻlaroq, marksistik nazariya ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi, ishlab chiqaruvchi kuchlar b-n ishlab chiqarish munosabatlarining oʻzaro munosabati haqidagi qoidalardan kelib chiqib, antagonistik jamiyatlarda Madaniyatning sinfiy xarakteri haqidagi qoidalarni ilgari surdi. Antagonistik formatsiyalarda har bir milliy Madaniyatda ikki Madaniyat borligi haqidagi lenincha qarash «hukmron ekspluatatorlik» M. iga «progressiv demokratik» va «sotsialistik» M. elementlarini qarama-qarshi qoʻydi. Ana shu qoidadan kelib chiqib, mustabid sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan «madaniy inqilob» natijasida koʻpgina xalqlar Madaniyat ining ajoyib durdonalari yoʻq qilinib, madaniy merosning milliy ildizlari barbod etildi. Madaniyat — umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning oʻzigina yaratgan sof Madaniyat boʻlmaydi va boʻlishi ham mumkin emas. Har bir milliy Madaniyatning asosiy qismini shu millat oʻzi yaratgan boʻlsada, unda ja-hon xalqlari yaratgan umuminsoniy Madaniyatning ulushi va taʼsiri boʻladi, albatta. Madaniyat hech qachon sinfiy hodisa boʻla olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Mas, sanʼat va adabiyot durdonalari, meʼmorlik obidalari, maqomlar, fan yutuqlari va b. barchaga tegishlidir. Madaniyat kishilar faoliyatining faqat moddiy natijalari (mashinalar, texnik inshootlar, sanʼat asarlari, huquq, axloq

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

normalari va h. k.)ni emas, shu bilan birga, kishilarning mehnat jarayonida voqe bo'ladigan subyektiv kuch-quvvatlari va qobiliyatlari (bilim va ko'nikmalari, i. ch. va professional malakalari, intellektual, estetik va axloqiy kamoloti, dunyoqarashi, ularning jamoa va jamiyat doirasidagi o'zaro muomalalari)ni ham o'z ichiga oladi. M.Abduraxmonov va H.Raxmonov fikricha ma'naviy madaniyat ta'lim va fan sohasiga oid ilmiy faoliyatni, axloqiy va estetik madaniyatni o'z ichiga oladi. Natijada ma'naviy madaniyat insonning layoqati va faoliyatining buyumlarda moddiylashgan shakilda, insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadiryatlar (ilim, sa'nat, xuquq, axloq qoidalari) shaklida mavjud bo'ldi<sup>4</sup>. A.Ochildiyev ma'naviy madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakillarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning barcha sohalarini qamrab olishni takidlaydi. Fikrni davom ettirib u xar-xil tasavvur va go'yalar, ta'limotlar, ilmiy bilimlar, san'at asarlari va axloqiy normalar kabi ma'naviy madaniyatning turli shakillari anashu faoliyatning natijasidir, deb baho beradi. Ular o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida turgan va o'zoro ma'lum bir musbatlarga kirishgan kishilar tomonidan yaratilgan. Demak, ma'naviy madaniyat ma'naviy faoliyati natijasi sifatida chiqayotgan xodisalargina emas, balki ularni yaratish jarayonida kishilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ham ifodalaydi<sup>5</sup>. Qiyosiy taxlil natijasida biz ma'naviy madaniyat inson faoliyatini ma'naviylashgan shakli natijalarini o'zida aks ettiradi hamda tasavvurlar, g'oyalar, ta'limotlar, ilmiy bilimlar, san'at asarlari va axloqiy normalar uning elementlaridir, degan hulosaga keldik. Ma'naviy madaniyatning turli shakillari fan, din, falsafa, san'at, axloq, xuquq, siyosat, mafkura, milliy o'zlik kabilardir. "Ma'naviy madaniyatning ayrim shakillari ma'lum bir doirada, boshqalari esa barcha sohalarda amal qiladi. Masalan, axloqning shakillanishi va paydo bo'lishida butun jamiyat xizmat qilgan bo'lsa, san'atni noyob qobiliyat egalari yaratadi. Kundalik bilim xammaga ozmi-ko'pmi xoc bo'lsa, faqat buyuk mutafakkirlargina ilim tufayli daxolar darajasiga yeta oladilar. Ma'naviy madaniyat yuksalishi davlatning olib brogan islohatlariga ham bog'liq ekan. Bir davlatda tinchlik hukumronlik qilmas ekan san'at xam, madaniyat ham yuksalmaydi, jamiyat parokandaga uchraydi. Ijodkor namunalarida milliylik yo'qoladi, go'zallik yo'qoladi. Bu esa tomoshabinni ongida ma'naviy pasayishni olib keladi. Jamiyatni idrok etish qobilyati susayib boradi. Estetik zavq olish, yangilik yaratish, o'zlikni saqlab qolish, kelajak avlodlarga tarixni eslatib turishda aynan san'at juda katta ro'l

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

o'ynaydi. Shu sabab viloyatlar, tuman markazlarida yangi ko'rgazma zallarini tash qilinishi kelajakdagi rassomlar qobiliyatini oshirishiga va o'z ustida ish olib borishiga sabab bo'ladi chunki ommani qamrab olish yuqori bo'ladi, insonlarni badiiy didi yuksaladi, ijod nima ekanligi, san'atning nozik qarashlarini o'z naznida tasavvur qila boshlaydi. Bu xolat yangi badiiy jarayonlarni takomillashishiga olib keladi. Qachonki tomashabinda san'at haqida tushuncha bo'lsagina ijodkordan yangicha qarashlarni kuta boshlaydi. O'z navbatida ijodkorlar ham o'z ustida ishlab yangi ijod namunalarini yarata boshlaydilar. Hozirgi kundagi davlatimizda Madaniyat sohalarida olib borilayotgan islohatlar yuqoridagi fikrlarimizni isbotidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. "Oliy Majlisga murojatnomasi", Toshkent ,2019.
2. Бобоев Х., Ҳамроев Т., Алимасов В. Маданиятшунослик. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.-6-7 б.
3. Шермухамедов С. Ижтимоий тараққиёт ва маънавий маданиятнинг ўзаро таъсири. –Фарғона: 1999. -7 б.
4. Абдурахмонов М., Рахмонов Н. Маданиятшунослик –Тошкент: 2008. – 37 б.
5. Очилдиев А. Маданият фалсафаси. –Тошкент: Муҳаррир, 2010. – 33 б.
6. Ростовцева Т.А. Философия общественного сознания: опыт феноменологического анализа. Красноярск, 1996. – 79 с.
7. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February). THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MUSIC. In Archive of Conferences (pp. 49-52).
8. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February). THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MUSIC. In Archive of Conferences (pp. 49-52).
9. Mannopov, S. (2004). Uzbek folk music culture.(Study guide) Tashkent. New Age Generation.
10. Маннопов, С. (2018). Навобахш оҳанглар. Т.: IJOD-PRESS нашриёти.